TO‘LIQSIZ OILADA BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI



Musurmanova Shaxlo Ilhomovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
E-mail: shaxlomusirmonova@gmail.com

Annotatsiya

To‘liq bo‘lmagan oilalar sonining ko‘payishi va ularda ota-onasiz farzandlarning ulg'ayishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda namoyon bo‘layotgan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammodir. Shu bilan birga, yolg'iz oila a'zolarining aksariyati o‘z vazifalari va majburiyatlarini talab darajasida bajara olmasligi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Agar bu muammolar o‘z o‘rnida hal etilmasa, ular mamlakatni ma'naviy inqirozga olib borishi tabiiy. Ushbu maqolada to‘liqsiz oilada bola shaxsini shakllantirishning samarali ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy- pedagogik texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, jamiyat, to‘liq bo‘lmagan oila, qadriyatlar, ota-ona, bola, oila, ajrashgan oila, tadbirkorlik, aqlli ayol, murakkab, funktsional, turmush o‘rtog'i, nikoh.

Аннотация

Увеличение числа неполных семей и взросление в них детей, оставшихся без родителей, является серьезной социально-экономической, духовной, социально-психологической и педагогической проблемой. В то же время одной из актуальных проблем стала неспособность большинства одиноких членов семьи выполнять свои обязанности и ответственность на должном уровне. Если эти проблемы не будут решены вместо них, то, естественно, они приведут страну к моральному кризису. В данной статье описаны эффективные социально-психологические и социально-педагогические технологии формирования личности ребенка в неполной семье.

Ключевые слова: соседство, сообщество, неполная семья, ценности, родители, ребенок, семья, разведенная семья, предпринимательство, умная женщина, сложный, функциональный, супруг, брак.

Annotation

The increase in the number of single-parent families and the growing up of children without parents in them is a major socio-economic, spiritual, socio-psychological and is a pedagogical problem. At the same time, the inability of most single family members to fulfill their duties and responsibilities at the required level has become one of the urgent problems. If these problems are not solved in their place, it is natural that they will lead the country to a moral crisis. This article describes effective socio-psychological and socio-pedagogical technologies of child personality formation in a single-parent family.

Keywords: neighborhood, community, incomplete family, values, parents, child, family, divorced family, entrepreneurship, intelligent woman, complex, functional, spouse, marriage.

Mamlakatimizda jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oila, onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilish, noto‘liq oilalar hamda ushbu oilalardagi muammosi mavjud farzandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilaviy qadriyatlar vositasida otaonalaar va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro oilaviy totuvlik, hamjihatlikni qaror toptirish, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta’lim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, kasbga tayyorlash, bandligini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu masalalarga oid huquqiy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 2 apreldagi “Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5700-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy

muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotinqizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar”ga bag‘ishlangan XIV bobining 76-80-moddalarida to‘liq o‘z aksini topgan.

To‘liqsiz oilada bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy, huquqiy va boshqa muammolar kuzatiladi. To‘liqsiz oiladagi bola shaxsini shakllantirishdagi muammolar quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Pedagogik muammolar.

1. Onaning ma’lumot darajasining pastligi
2. Ona tomonidan vazifalarni to‘liq bajarilmasligi
3. Ona o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan shug‘ullanmasligi

2. Psixologik muammolar.

1. Oilada psixoterapevtik funktsiyaning bajarilmasligi
2. Oilada ruhiy xotirjamlikning yo‘qligi
3. To‘liqsiz oila bilan ishlashda mahalla va maktab psixologlari hamkorligining etarli emasligi

3. Iqtisodiy muammolar.

1. Oila byudjeti bilan bog‘liq moddiy qiyinchiliklar
2. Bolani moddiy jihatdan to‘liq ta’minlanmaganligi
3. To‘liqsiz oilalar uchun mahalla, NNT va ta’lim muassasalari moddiy ta’minotining yetarli emasligi

4. Ijtimoiy muammolar.

1. Oilada ijtimoiy tasavvurlarning etarli darajada shakllanmaganligi
2. Ota yoki onaning farzand bilan o‘zaro muloqotining kamligi
3. Bolaning ijtimoiylashuvida oila bilan ijtimoiy institutlar hamkorligining etarli emasligi

To‘liqsiz oiladagi pedagogik muammo bu – bola tarbiyasidir. Bola shaxsi shakllanishidagi muammolarda odob-axloqi, xulq-atvor normalari, ma’naviyati, madaniyati, oiladagi urf-odat va an’analarga ota yoki ona tomonidan e’tiborsizligi natijasida namoyon bo‘ladi. Ota yoki ona tomonidan bola tarbiyasiga bee’tiborligi yoki tarbiya jarayonidagi “ikkilanish”, ya’ni bolani to‘g‘ri yo‘l, usul bilan tarbiya qilayotganligidan shubhalanish bolaning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida pedagogik to‘siqlarga duch kelishi mumkin.

Pedagogik muammolarda birinchi o‘rinda onaning ma’lumot darajasini pastligi, bola tarbiyasida diniy, dunyoviy, ilmiy, pedagogik-psixologik bilimlarga ega emasligi, shuningdek, onani mustaqil o‘z ustida shug‘ullanmasligi, yoki u tomondan oilaviy vazifa va rollarning to‘liq bajarilmasligi natijasida oilada turli muammolarga duch keladi.

To‘liqsiz oilalarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida **“Rene-Jilya metodikasi”**, **Rassel va Fergyussonlar** tomonidan ishlab chiqilgan “Yolg‘izlikni sub’ektiv his qilish” metodikasi, **TMAT** -(tarbiyadagi muammoni aniqlovchi test) asosida ota-onalar bilan maqsadli seminarlar o‘tkazish, maktab va mahallalarda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish, psixologik suhbat, test, seminar, metodikalarni o‘tkazish, muammoli vaziyatga doir topshiriqlar orqali hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, bolalarni bo‘sh vaqtini to‘g‘ri va samarali tashkil etishni o‘z ichiga qamrab olgan.

Noto‘liq oila jamoatchilik nazarida juda past ijtimoiy maqomga ega bo‘lib, bu moddiy resurslarning etishmasligi bilan chambarchas bog‘liq. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, noto‘liq oilalarda asosan bolalar shaxsini shakllantirishda juda ko‘p qiyinchilik va to‘siqlarga duch kelinadi. Masalan, ularda moddiy ta’minotning sustligi tufayli bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish, ulardagi qiziqish hamda layoqatlarini aniqlash, qobiliyatlarni shakllantirish, bola uchun sevimli bo‘lgan mashg‘ulotlarga jalb qilish borasida ham iqtisodiy va psixologik qo‘llab-quvvatlay olmaslik bilan yuzaga keladigan muammolar mavjud.

To‘liqsiz oilada bola shaxsini shakllantirishda mahalla tizimi mutaxassislari quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. To‘liqsiz oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish kerak. Mahalla psixologlari tomonidan pedagogik-psixologik trening, psixologik monitoring, maxsus tayyorlangan buklet va broshyuralar asosida pedagogik-psixologik tashviqot, seminar, maxsus o‘quvlar (ota-onalar universiteti doirasida) tashkil etish lozim. Bunda xar bir to‘liqsiz oilani o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy xolatini xisobga olish zarur.

2. To‘liqsiz oilada o‘sgan bolalar bilan o‘z sohasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan olim, rahbar, tadbirkor va taniqli bo‘lgan sportchi, san’atkor, yozuvchi va shoirlar uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday engib muvaffaqiyatlarga erishganligi haqida davra suhbati o‘tkazish lozim. Bundan maqsad to‘liqsiz oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, to‘liqsiz oilada voyaga etayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni engishga irodani safarbar qilishga o‘rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to‘liq oila bolalariga ham kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

3. To‘liqsiz oiladagi bolalarning tug‘ma layoqat va qiziqishlarini hisobga olgan holda sport, musiqa, san’at va boshqa kasb-hunarga yo‘naltirish lozim.

4. Mahalla va maktab psixologlari to‘liqsiz oilalar bilan muntazam ishlab, psixologik-pedagogik monitoringini olib borishlari zarur.

5. To‘liqsiz oiladagi bolalarni ta’til davomida dam olish davrini tizimli va samarali tashkil etish maqsadida qo‘shimcha ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishga yo‘naltirishda mahalla, ta’lim muassasa, NNT va boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda iqtisodiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

To‘liqsiz oilalarning aksariyatida ona o‘z bolalarini otasiz tarbiyalayotgan bo‘lib, asosiy faoliyatini oilani moddiy ta’minlashga qaratayotganligini sababli, bolalar tarbiyasiga etarli vaqt ajrata olmayotganligi kuzatiladi. Bu esa, albatta, mana shunday sharoitdagi to‘liqsiz oilada o‘sayotgan bolaning ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

To‘liqsiz oilalarning aksariyati moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirishi sababli bola tarbiyasida qo‘shimcha ta’lim, san’at va kasb-hunarga oid bilim va ko‘nikmalarni egallash, yoki turli sport yo‘nalishlari bilan shug‘ullanishga etarli imkon topa olmaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, bola shaxsida mavjud bo‘lgan tug‘ma layoqatni erta annglash, uni qobiliyatga aylantirish va rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

To‘liqsiz oilada bola shaxsini shakllantirishda eng katta muammolardan biri bu psixologik-pedagogik muammolardir. Ushbu muammolarning kelib chiqishiga sabablaridan biri-oilaning yoshligi bo‘lsa, so‘ngra ko‘proq ona faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, uning tarbiya borasidagi uquvsizligi, psixologik-pedagogik bilimlarining sayozligi, asosiy vaqtini oila byudjetini ta’minlashga sarflashi natijasida bolalari bilan kam muloqotda bo‘lishi, ularni tarbiyalash uchun esa vaqti va tajribasining etishmasligi, umuman olganda, o‘zi pedagogik-psixologik maslaxatlarga muhtojligidadir.

Demak, to‘liqsiz oilalardagi o‘g‘il va qizlar orasida tarbiyasidagi salbiy jihatlarini ifodalanishi orasida etarli farq bo‘lib, ularning bir qismi yosh xususiyati, qolgan qismi to‘liqsiz oilaning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari bilan belgilangan. Shu bilan birga “To‘liqsiz oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiy-pedagogik test” natijalarga ko‘ra genderga xos hususiyatlar aniqlangan. Bularga yolg‘onni ko‘p ishlatish odati, do‘stlarini do‘stlariga rashk qilish, arzimas narsaga xafa bo‘lish, nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, kek saqlash kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni.

3.Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. Science and innovation, 2(B1), 49-59.

4.Мусурмонов, Р., & Мусурмонова, М. (2020). Таълимда инновацион фаолият давр талаби. Science and Education, 1(Special Issue 4), 223-231.

5.Мусурманова, О. М., Уразова, М. Б., & Жамолладинова115, О. Р. (2017). Подготовка педагогических работников к процессу развития культуры здоровой жизни молодежи в системе непрерывного образования. Текстовое электронное издание, 296.

6.Musurmonov, R., Burkhonov, A., & Musurmonova, M. (2021). Innovative activity-a factor of educational efficiency. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(3), 1238-1241.

7.Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. Проблемы педагогики, (1 (33)), 5-7.

8.Musurmanova, A., & Abdukhayotovna, A. K. (2023). The movement of foreign countries in protecting women's rights and the content of reforms in our country. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(1), 1074-1080.

9. Мусурманова, Ш. И. (2023). Маҳалла фуқаро йиғини тизимидаги мутасаддиларнинг нотўлиқ оила билан фарзанд тарбиясидаги ўзаро ҳамкорлиги.

10. Ilkhomovna, M. S. (2023). Issues in the development of socio-intellectual competence of adult student-youth in incomplete families in higher educational institutions.